

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

ESTETIKA

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 - Falsafa

Qo‘qon – 2025

Fan / modul kodi Es1204		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4
Fan / modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Estetika	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Estetika fani inson his-tuyg'ulari, didi, estetik ongi va atrofdagi voqelikka bo'lgan munosabat hamda tasavvurlari, inson bilan voqelikdagi estetik xususiyatlar, estetik idrok, estetik ong va anglash, yuksak estetik did va tuyg'u, globallashuv jarayonlarida jamiyatning nafosatga bo'lgan ehtiyoji, estetikaning asosiy kategoriyalari va tamoyillariga yangicha yondoshuv, zamonaviy estetikaning dolzarb muammolariga oid ilmiy bilimlarni qamrab oladi. Fanni o'qitishdan maqsad - estetik tafakkur taraqqiyot bosqichlari, ularning xususiyatlari, estetikaning shaxs va jamiyat hayotida tutgan o'rni, estetik idrok, estetik ong va anglash, estetikaning tuzilmasi, lining jihatlar va falsafiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish hamda yuksak estetik did talablariga mos hayot faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi - estetikaning milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil etish, ularning inson hayotidagi xal qiluvchi mavqeini talabalar ongiga singdirish, ularda estetik did va estetik tuyg'uni tarbiyalash, voqelikni estetik idrok qilish, o'zlashtirish va munosabat bildirishga o'rgatish, ichki va tashqi go'zallik uyg'unligini ta'minlash orqali talabalarda estetik madaniyatni takomillashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarining estetik mohiyatini idrok etish hamda ularni qadrlashga o'rgatish, globallashuv jarayonlarida jamiyatning nafosatga bo'lgan ehtiyojini ilmiy asoslash, jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida estetikaning asosiy kategoriyalari va tamoyillariga yangicha yondoshuvni qaror toptirish, zamonaviy estetikaning dolzarb muammolarini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy tahlildan o'tkazish hisoblanadi.			

	Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Falsafa fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan AL Farobiy universitetining madaniyat falsafasi fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 boyicha 166-o'rinni egallagan bo'lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jaihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – AL Farobiy universitetining Madaniyat falsafasi kursida, fanning asosiy tushunchalari, g'oyalari, nazariyalari va usullarini, shuningdek, jamiyatning tabiati va evolyutsiyasi yo'nalishiga oid zamonaviy va zamonaviy nazariyalarni ko'rib chiqamiz. Falsafiy va axloqiy munozaralar shaxs va jamiyat, insoniyat jamiyati va falsafiy qarashlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar nuqtai nazaridan tuzilgan. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni siyosiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, siyosiy voqealarni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari, ichki va xalqaro siyosiy kun tartibini ekspert baholash usullari, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa xavf va tahdidlarni aniqlash prinsiplari asosida boyitilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini siyosiy-tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.
3.	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Estetikaning falsafiy mohiyati, maqsadi va vazifalari. Estetika fanining obyekti va falsafiy mohiyati. Nafosat va estetika tushunchalarining talqini. Estetikaning falsafiy fan sifatida borliq, inson va uning borlig'iga o'ziga xos yondoshuvi. Estetika tadqiqot doirasining miqyosiyliigi. San'at va go'zallikning estetika tadqiqot doirasidagi o'rni. Dunyoni estetik his qilishga mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlar. Estetikaning amaliyotdagi ahamiyati. Estetikaning rivoji va boshqa fanlar bilan integratsiyasi. 2-mavzu: Estetikaning kategoriyalari va ularning dialektik aloqadorligi Estetikaning asosiy kategoriyalari estetik bilishning muhim omili

sifatida. Nafosat metakategoriya sifatida. Nafosatning xususiyatlari. Go‘zallik kategoriyasi; go‘zallikning sifatlari va xususiyatlari; go‘zallik va sifat; go‘zallik va manfaat; go‘zallik va xunuklik. Go‘zallikning san’atda namoyon bo‘lishi; Ulug‘vorlik kategoriyasi; ulug‘vorlikning favqulodda salbiy hissiyotlarga asoslanishi; ulug‘vorlikka son va miqyosning ta’siri; tabiatdagi ulug‘vorlik; jamiyatdagi ulug‘vorlik; ulug‘vorlikning san’atda namoyon bo‘lishi; ulug‘vorlik vatubanlik. Fojiaviylik kategoriyasi; fojiaviy to‘qnashuv va uning asoslari; fojiaviylik va estetik ideal; fojiaviylikning san’atda namoyon bo‘lishi; fojia (tragediya) - san’at janri sifatida; fojiaviy ziddiyat va fojiaviy qahramon; forig‘lanish. Kulgililik kategoriyasi; kulgili holat; kulgi va uning inson hayotidagi o‘rni; hazil hissi; kulgililikning san’atda namoyon bo‘lishi va uning ifoda shakllari (hajv, mutoyiba, kinoya, kesatiq, istehzo); kulgi (komediya) - san’at janri sifatida; kulgining forig‘lantirish xususiyati. Kulgililikning demokratik xususiyati. Mo‘jizaviylik, xayoliylik va qiziqarlilik kategoriyalari. Estetika kategoriyalarining o‘zaro aloqalari.

3-mavzu: Estetik g‘oyalar taraqqiyoti tasnifi

Nafosat haqidagi tafakkuming paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Estetikada asosiy konsepsiyalar va nazariyalar. Antik davr estetikasining vujudga kelishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Antik davr estetikasining keyingi davrlar jahon estetikasi taraqqiyotiga ta’siri. O‘rta asrlar Yevropa nafosat falsafasi. Yangi davr Yevropa mutafakkirlarining estetik qarashlari va nazariyalari. Yevropa ma’rifatparvarlari estetikasi. Nemis mumtoz estetikasi. XIX asr so‘nggi choragi va XX asr boshlaridagi rus estetikasining xususiyatlari. Eng yangi davr asosiy estetik ta’limotlari va yo‘nalishlari.

Sharq - Qadimgi dunyo estetikasining beshigi sifatida. «Avesto»da ilgari surilgan estetik g‘oyalar. Markaziy Osiyo, Eron va Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqalarida estetik qarashlar. Yapon estetikasining kategoriyalari. O‘rta asrlar Sharq estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari. Badiiy qiyofaning musulmon madaniyatidagi talqini va san’atda aks etishi. Tasavvufning estetik doktrinasi. Tasavvuf estetikasining vujudga kelishi va o‘ziga xosligi. Tasavvufda musiqa va she’r san’atining falsafiy mohiyati.

Temuriylar davri - O‘rta asrlar musulmon Sharqi san’ati taraqqiyotining oltin davri sifatida. Navoiy, Jomiy, Bobur, Husayn Boyqaroning estetik qarashlari. Musiqa va she’r san’atining yuksak bosqichga ko‘tarilishi, hattotlik va me’moriy san’at taraqqiyoti. XIX asr oxiri va XX boshlarida Turkistonda estetik tafakkur taraqqiyoti. Mustaqillik davri o‘zbek estetikasidagi asosiy g‘oyalar va qarashlar. Prezident Sh.Mirziyoevning nafosat va ezgulik, go‘zallik va ulug‘vorlik, bunyodkorlik va farovonlik haqidagi fikrlarining tahlili. Mustaqillik davrida

zamonaviy o'zbek olimlari E.Umarov, H.Shayxova, M.Mahmudov, T.Mahmudov hamda A.Sherlar, A.Kurbonmamedov, U.Qoraboyev, G.Mahmudova, B.Husanovlarning estetika nazariyasiga qo'shgan hissalari.

4-mavzu: San'at - estetikaning asosiy obyekti sifatida.

San'at estetikasi

San'at bilish va ijtimoiy ongning o'ziga xos shakli sifatida. San'atning boshqa fanlar bilan integratsiyasi. San'atda estetikaning asosiy qonuniyatlarining ifodalanishi. San'at turlari. San'at turlarida badiiy obraz va obrazlilik. San'atda estetik idrok va mantiqiy idrokning o'ziga xosligi. San'atda uslub va janrlar. San'at turlarida terminlar integratsiyasi. San'atkor shaxsining xususiyatlari: qobiliyat, iqtidor, iste'dod va daho.

5-mavzu: Ijod, badiiy ijod va idrok jarayonlari

Ijod va badiiy ijod. Ijodkor shaxsning iste'dod me'yorlari. Ijodning ruhiy-estetik jihatlar. Ijodda ong, onglanmaganlik va tasavvur. Inson hissiyoti va onglanmaganligi bilan bog'liq ijodiy yo'nalishlar va uslublar. Ijod jarayonining asosiy bosqichlari. Ijod texnikasi va mahorat. Ijodning gedonistik xususiyatlari. Badiiy ijod estetik faoliyatning bir turi sifatida. Badiiy ijod jarayonining o'ziga xos jihatlar. Badiiy idrok jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy asarni ijodiy talqin qilish masalasi. Badiiy uslub va dunyoqarash. Uslub - badiiy asar mazmuni, obrazli tizimi, badiiy vositalarning ifodaviy shakli sifatida.

6-mavzu. Badiiy asarni estetik idrok etishning tarbiyaviy ahamiyati

Estetikada qarama-qarshilik, garmoniya, ritm va ularning badiiy asarlarda ifodalanishi. Estetikada sifat va miqdor uyg'unligi. Badiiy asar qurilmasining tahlili va badiiy asarning g'oyaviy mezonlari. Badiiy asarda shakl va mazmunning o'zaro munosabatlari. Badiiy asarda mavzu va g'oya, syujet va fabula, xarakter va kolliziya. Badiiy asar kompozitsiyasi: tugun, kulminatsiya nuqtasi va yechim; badiiy obraz. Badiiy asarni rivojlantiruvchi mezonlar. Badiiy asarda miqdor mezonlari. Badiiy asarning shakliy mezonlari. Badiiy asarning tasviriy va ifodaviy vositalari.

7-mavzu: Estetik anglash va uning tuzilmasi

Estetik anglash inson mhiyatida o'ziga xos, chuqur ijobiy mhiy o'zgarishlarni vujudga keltiradi. U estetik faoliyatning boshlanishidan avval insonni unga tayyorlovchi hodisa sifatida muhim: usiz estetik faoliyatning ro'y berishi mumkin emas. Estetik anglashning murakkab hodisa ekanida estetik ehtiyoj, turli hislar va ma'naviy andozalamini har bir shaxs uchun alohida mhiy evrilish tarzida namoyon bo'lishi bilan bog'liq; bu evrilish kuchli va asosan his-hayajon, ehtirosli kechinmalm asosida vujudga keladi

8-mavzu: Nosan'at obyektlar estetikasi

Tabiat estetikasi. Tabiat estetik qadriyat sifatida. Tabiat estetikasining o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiylik va uyg'unlik. Tabiat - go'zallik va ulug'vorlik manbai sifatida. Fan-texnika taraqqiyotining tabiat estetikasiga ta'siri. Ekoestetika va uning atrof-muhitni go'zallashtirishdagi o'rni. Landshaft dizayni. Globallashuv jarayonida "inson - tabiat" munosabatlarini uyg'unlashtirish muammosi. Tabiatga estetik munosabat va tabiatni estetik o'zlashtirish. Sport estetikasi. Sportning estetik mazmuni va jamiyat madaniyatidagi o'rni. Sport turlarida estetik qonuniyat va elementlarning namoyon bo'lishi. Jismoniy go'zallik. Sog'lom turmush tarzi estetikasi. "Sog'lom ona va sog'lom bola" tamoyilining estetik mohiyati. Sport - milliy va umuminsoniy estetik madaniyat ramzi sifatida. Milliy sport o'yinlarida axloqiy-estetik madaniyat in'ikosi.

9-mavzu: Estetik munosabat

Estetik munosabat ham ikki asosiy unsurdan tashkil topadi: obyekt va subyekt. Lekin bunda obyekt subyekt tomonidan belgilanadi: agar subyekt estetik jarayonga kirishmasa, uning munosabati, obyekt qanchalik go'zal yoki ulug'vor bo'lmasin, estetik mohiyat kasb etmaydi. Estetik jarayon esa, subyektning botiniy his-tuyg'ulariga, kayfiyatiga, vaqtiga, kuzatishiga, mushohadasiga, fikrlash imkoniyatiga, saviyasiga, qobiliyatiga, iste'dodi, obyekt bilan o'rtadagi masofa tasavvuri kabi tug'ma hamda ta'lim-tarbiya va tajriba vositasida vujudga keladi.

10-mavzu: Turmush tarzi estetikasi

Turmush estetikasi. Turmush estetikasining mohiyati. Turmush estetikasida urf-odat va an'analarning ahamiyati. Turmush estetikasi va oila muhiti. Turmush estetikasi va axloqiy-estetik madaniyatning o'zaro aloqadorligi. O'zbekistonda turmush estetikasini yuksaltirishga e'tibomning kuchayishi.

11-mavzu: Mehnat estetikasi Mehnat estetikasi. Ishlab chiqarishda estetikaning namoyon bo'lishi. Mehnat sharoiti va vositalarining mehnat estetikasida tutgan o'rni. Mehnat jamoasi va unda estetik muhitning o'imi. Mehnat estetikasining inson ma'naviyatini yuksaltirishga ta'siri.

12-mavzu: Texnika va dizayn estetikasi

Texnika estetikasi. Texnika dizaynining estetik mohiyati. Texnika estetikasining taraqqiyot bosqichlari va nazariyalari. Texnik inqilob tamaddunida insonning ilk mehnat qurollari. Umij-texnik kashfiyot va ixtirolarning jamiyat estetik muhitiga ta'siri. Ergonomikaning estetik jihatlari va mazmun-mohiyati. Ergonomikaning paydo bo'lishi va uning texnika estetikasi bilan aloqadorligi. Ergonomika va estetik qonuniyatlar.

Ergonomikada inson va texnika omili. Ergonomika va dizaynning aloqadorligi. Ergonomikaning ruhiy-estetik jihatlari. Ergonomikaning bugungi kundagi

ahamiyati. Dizaynning estetik mohiyati. Estetikada dizaynni tasniflash muammolari. Interer dizayni, eksterer dizayni, dizaynning zamonaviy yo'nalishlari, kiyim-kechaklar dizayni, atrof muhit dizayni va h.k. Dizaynda estetik mezonlarning o'rni.

13-mavzu: Estetikaning ijtimoiy-iqtisodiy potentsiali. Moda, brend, reklama va logotiplar estetikasi.

Iqtisodiyotda jamiyat estetik didining ahamiyati. Bozor iqtisodiyotida go'zallikning qiymat kasb etuvchi mexanizmga aylanishi. Marketing estetikasi. Reklama, brend va logotiplarning vizual estetik jihatlari. Branding estetikasi. Logotiplar estetikasi. Go'zallik industriyasi va estetik tibbiyot. Moda va uning turlari hamda inson fiziologiyasi va madaniyatidagi ahamiyati.

14-mavzu: Estetik tarbiya

Zamonaviy shaxsni voyaga yetkazishda estetik tarbiyaning ahamiyati. Estetik tarbiyaning turli yo'nalishlari hamda an'anaviy va zamonaviy shakllari. Estetik tarbiyaning usullari va vositalari. Ruhiy-hissiy tarbiya va artterapiyaning zamonaviy tarbiyadagi o'rni. Estetik did va "Ommaviy madaniyat" fenomeni. "Ommaviy madaniyat" va postmodernizm. Postmodernizm ommaviy madaniyat transformatsiyasi. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'siri. Xorijiy mamlakatlarda estetik tarbiya tajribasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Estetik tarbiya va estetik madaniyat. Estetik tarbiyaning aqliy, axloqiy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan o'zaro aloqadorligi. Estetik qadriyatlar mamlakatlararo va millatlararo tinch-totuvlikni, birdamlikni ta'minlovchi omil. Inson begonalashuvining oldini olishda estetik omillarning o'rni.

15-mavzu: Zamonaviy estetikaning yangi yo'nalishlari va muammolari.

Metaestetika.

Postindustriya va uning estetikaga ta'siri. Hozirgi kunda vizual estetikaning o'rni. Optik san'at, kinetik san'at va ularda estetik me'yorlarning ifodalanishi. Atrof-muhitni idrok etish va anglashda sinesteziyaning o'rni. 3D o'lchamli kompyuter san'atlari. Mediasan'at va Net-art. Zamonaviy san'atlar va ularning estetik jihatlari. Bioestetika va tibbiy estetika muammolari hamda ularning inson hayotidagi o'ri. Estetosfera tushunchasi. Estetik tasavvurning kross-madaniy xususiyatlari. Estetik taraqqiyot tushunchasi. Estetik taraqqiyotning turli sohalarda namoyon bo'lishi. Estetik taraqqiyotning moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi bilan dialektik aloqadorligi.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu: Estetika fanining maqsadi va vazifalari.
- 2-mavzu: Estetikaning asosiy kategoriyalari
- 3-mavzu: Estetik g'oyalar evolyutsion rivojlanishi
- 4-mavzu: San'at estetikasi.
- 5-mavzu: Ijod, badiiy ijod falsafasi.
- 6-mavzu. Badiiy asarni estetik idrok etishning tarbiyaviy ahamiyati.
- 7-mavzu: Estetik anglash va uning tuzilmasi
- 8-mavzu: Nosan'at obyektlar estetikasi.
- 9-mavzu: Turmush tarzi estetikasi.
- 10-mavzu: Estetik munosabat
- 11-mavzu: Mehnat estetikasi
- 12-mavzu: Texnika va dizayn estetikasi
- 13-mavzu: Estetikaning ijtimoiy-iqtisodiy potentsiali.
- 14-mavzu: Estetik tarbiya va estetik madaniyat.
- 15-mavzu: Zamonaviy estetikaning yangi yo'nalishlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Jahon faylasuflarining nafosat haqidagi ta'limotlarini o'rganish va taqdimot qilish.
2. Sharq va G'arb estetikasini qiyosiy tahlil etib taqdimot qilish.
3. "Adabiyot nadir?" maqolasining estetik mazmunini tushuntirish.
4. Jadid adabiyoti: "Kecha va kunduz", "Go'zal", "Binafsha", "Adabiyot qoidalari" asarlarining estetik mohiyatini taqdimot orqali ochib berish.
5. Jadid teatri: "Padarkush" dramasining estetik xususiyatlarini taqdimot orqali ochib berish.
6. "Go'zal muhitda yashash - oliy maqsad" tamoyili bo'yicha referat tayyorlash.
7. B.Husanovning "Go'zallik falsafasi" monografiyasini tahlil etish va mohiyatini tushuntirish.
8. A.Erkayevning "Estetik ong va badiiy bilish" nomli maqolasini tahlil etish va mohiyatini tushuntirish.
9. San'at muzeylari va ko'rgazmalariga tashrif asosida esse tayyorlash.
10. Taniqli o'zbek rassomlari A.Nur, J.Umarbekov, A.Mirzayev, O.Qozoqov, L.Ibrohimov, B.Jalolov, D.Mamedova, Sh.Abdullayeva, A.Aliqulov, R.Xudoyberganovlar asarlarini estetik tahlil qilib taqdimot tayyorlash.
11. Platon: go'zallikning mutlaq va abadiy g'oya sifatida talqini.
12. Aristotel: san'atning taqlid (mimesis) nazariyasi, tragediyaning estetik ta'siri.
13. Kant: "Hukm qobiliyati tanqidi" da go'zallikning manfaatdan xoli baholanishi.
14. Hegel: san'atning mutlaq ruhni ifoda etishi va tarixiy taraqqiyot bilan bog'liqligi.
15. Shopenhauer: san'at orqali dunyo iztiroblaridan ozod bo'lish g'oyasi.
16. Cho'lponning adabiyotga bergan ta'rifi: adabiyot jamiyat oynasi va inson qalbining ifodasi.

	17.Adabiyotning estetik vazifasi: tarbiyaviy, ma'naviy va badiiy go'zallikni ochib berish. 18.Milliy uyg'onish davrida adabiyotning jamiyatni yangilashdagi o'rni. 19.Platon va Aristotel qarashlarida nafosat tushunchasi. 20.Kantning "Hukm qobiliyati tanqidi" va go'zallik mezonlari. 21.Hegel estetikasida san'atning falsafiy mohiyati. 22Sharq tasavvuf falsafasida go'zallik va komillik (Navoiy, Rumi, Jomiy qarashlari). 23.Estetikaning zamonaviy konsepsiyalari: modernizm va postmodernizm. 24.Sharq va G'arb estetikasida inson va tabiat uyg'unligi. 25.Tasavvufiy she'riyatda go'zallik konsepsiyasi (Jaloliddin Rumi va Hofiz misolida). 26.Yevropa romantizmi va o'zbek romantik adabiyotidagi estetik qarashlar. 27.Cho'lponning "Adabiyot nadir?" maqolasi va undagi estetik g'oyalar. 28."Kecha va kunduz" romanining estetik tahlili. 29."Go'zal" asarida go'zallik va muhabbat timsoli. 30.Fitratning "Adabiyot qoidalari" asarida estetik me'yorlar
4.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - estetikaning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti, estetik munosabatlarni hamda mumtoz va zamonaviy estetikaning falsafiy mazmuni haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; - inson - tabiat - jamiyat munosabatlarida estetik xususiyatlarning nazariy va amaliy ahamiyatini anglash malakasiga ega bo'lishi; - estetika tamoyillari va me'yorlarining mazmuni, kategoriyalarining tasnifi va ularning dialektikasi hamda G'arb va Sharq mutafakkirlari estetik ta'limotlarining bugungi kundagi ahamiyatiga doir ilmiy va nazariy masalalariga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
5.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlar qilish;
6.	VII.Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha belgilangan test yoki yozma ishni topshirishi zarur.
7.	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot

	manbalari Asosiy adabiyotlar 1.Kadirova D.S. Nafosat falsafasi. Darslik. - T.: “Mumtoz so‘z”, 2022. 2.Kadirova D.S. Analitik estetika. 0 ‘quv qo‘llanma. - T.: “Mumtoz so‘z”, 2022. 3.Kadirova D.S. San‘at estetikasi. 0 ‘quv qo‘llanma. - T.: “Mumtoz so‘z”, 2022. Zamonaviy xorijiy adabiyotlar 4.Stephen Davies, Kathleen Marie Higgins, Robert Hopkins, Robert Stecker, and David E. Cooper. A Companion to Aesthetics. Second edition. Wiley-Blackwell. A John Wiley & Sons, Ltd., Publication, 2017. Qo‘shimcha adabiyotlar: 5.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 6.Kadirova D.S. San‘at falsafasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Vneshinvestprom” 2023. 7.Estetika. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. - T.: “Universitet” nashriyoti, 2019. 8.Xusanov B. Go‘zallik falsafasi. Monografiya. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. - 152 b 9.G‘aybullaev O.M. Estetik madaniyat. Monografiya. -Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2020. - 310 bet. 10. Usmonova L.R. Markaziy Osiyo miniatyura san‘atining vorisiyligi estetikasi. Monografiya. -Samarqand, 2023. -140 b. 11. Abdulla Sher. Estetika / Darslik. - T.: O‘zbekiston, 2015. Elektron manbalar 12. www. ziyouz.uz. 13. www. ziynet. 14. www. pedagog.uz. 15. www.edu.uz 16.https://welcome-kaznu-kz.translate.google/ru/education_programs/bachelor/speciality/1398?_x_tr_sl=auto&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=uz&_x_tr_pto=wapp#elective 17.https://welcome-kaznu-kz.translate.google/ru/education_programs/bachelor/speciality/1398?_x_tr_sl=auto&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=uz&_x_tr_pto=wapp#elective
8.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
9.	Fan/ modul bo‘yicha mas’ullar:

	– Qo‘qon DU Falsafa va dinshunoslik kafedrası o‘qituvchisi Z.Abduraxmonov
10.	Taqrizchilar: O.Ortiqov– Qo‘qon DU, “Milliy g‘oya va huquq” kafedrası dotsenti, falsafa doktori (PhD). I.Siddiqov – FarDU, Falsafa va milliy g‘oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori.